GCCR
Global Conference on Contemporary Research

GLOBAL CONFERENCE ON CONTEMPORARY RESEARCH



CONFERENCE THEME:

SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH

INNOVATION | DIGITAL TRANSFORMATION | GLOBAL COLLABORATION | SUSTAINABLE FUTURES

JOURNAL

PEER-REVIEWED PROCEEDINGS

OCTOBER 2026

TORONTO, CANADA

gccr.academy

COMPARATIVE ANALYSIS OF MODERN ARMOURED VEHICLES

Bekmetov Oybek Uralovich

Master

University of Military Security and Defence of the Republic of Uzbekistan.

https://doi.org/10.5281/zenodo.23598487

Abstract: This article presents views on the comparative analysis of modern armored vehicles. The article analyzes the provision of our troops with modern weapons and equipment, as in developed countries, and the widespread use of information technologies in unit management.

Keywords: armored vehicle, weapons and equipment, light armor, special equipment, radio control.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy zirhli avtomobillarning qiyosiy tahlili xususida fikrlar keltirilgan. Maqola qo‘shinlarimizni zamonaviy, rivojlangan mamlakatlar singari qurol-yaroq va texnikalar bilan ta’minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zirhli avtomobil, qurol-yaroq va texnika, yengil zirhlangan, maxsus jihozlar, radioboshqaruv.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о сравнительном анализе современных бронированных автомобилей. В статье анализируется обеспечение наших войск современным вооружением и техникой, как и в развитых странах, широкое использование информационных технологий в управлении подразделениями.

Ключевые слова: бронеавтомобиль, вооружение и техника, легкая броня, специальное оборудование, радиоуправление.

Kirish. Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O‘zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart. Xususan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan

ta’minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish – bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo‘lib qoladi.

Hech shubhasiz, birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga, xalqimizning tinch mehnati, osoyishta hayotini, yurtimizning musaffo osmonini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga har tomonlama qodirmiz. Ha, albatta hozirgi kundagi qurolli kuchlarimiz avvalgilaridan tubdan farq qiladi. bu qo‘shinlarimizni zamonaviy, rivojlangan mamlakatlar singari qurol-yaroq va texnikalar bilan ta’minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash kabilarda namoyon bo‘lmoqda desak xato bo‘lmaydi.

Asosiy qism. Ocelot - Angliyada ishlab chiqilgan yengil zirhlangan avtomobil. Uning vazifasi har qanday xududda patrul xizmatini o‘tash, o‘t ochishni boshqarish va front ortidan madad berish. Unifikatsiyalanganlik darajasi yuqoriligi hisobiga mashinani platformasiga turli maxsus jihozlarni o‘rnatishga va ularni dala sharoitida tez almashtirishga imkon yaratadi. Ocelot markazlashgan holda shinalar bosimini rostlash tizimi, havoni konditsionerlash, aloqa apparaturasi hamda radioboshqaruvli portlash uskunalarini radioelektron bosim o‘tkazish tizimi va boshqalar bilan jihozlanishi mumkin.

Renault Higuard



Ocelot



Renault higuard rusumli zirhli texnikaning g‘ildirak formulasi 6x6. Desant otsekida jangovar bo‘linmaning o‘ntagacha desanti to‘liq qurollari bilan joylashi imkoni mavjud. Mashina ekipaj va desant uchun minalardan himoyalangan maxsus o‘rindiqlar bilan

jihozlangan. Zirhli mashinaga kalibri 12,7 yoki 7,62 kalibrli pulemyot, shuningdek, kalibri 40 mm bo‘lgan granatomyot o‘rnatiladi.

Maxxpro zirhli mashinasi iroqda turgan AQSh qurolli kuchlari kontengentini tezkorlik bilan butlash uchun 2007 yilda qurollanishga qabul qilingan. Maxxpro yetti kilogrammgacha trotil ekvivalentiga teng mina portlashidan ekipajni himoya qilish xususiyatiga egaligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Zirhli avtomobil kalibri 7,62 pulemyot o‘rnatilgan katta bo‘lmagan minora bilan jihozlanishi mumkin.

Kirpi Turkiyaning zirhli avtomobili, g‘ildirak formulasi 4x4. Zirhli texnika izmir shahridagi VMS maxsus kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Zirhlash darajasi NATO standartini 3- sinfiga mos keladi. Mashina 8 kilogramgacha trotil ekvivalentiga teng portlashlaga bardosh berish qobiliyatiga ega. Kirpi zirhli texnikasi kalibri 7,62 zirh teshuvchi o‘qlardan va artilleriya snaryadi parchalaridan himoya qila oladi. Desant bo‘linmasida o‘ntagacha to‘la epikirovkali desant joylashishi mumkin.

Kirpi



MaxxPro



Didgori 3 Gruziyaning zirhli avtomobili 2012 yilda taqdim qilingan. Tbilisi aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan “Delta” davlat harbiy ilmiy-texnik markazi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Mashina ekipaji 3 kishi: komandir, haydovchi va o‘qchi-yo‘naltiruvchidan iborat. Desant bo‘linmasida 9 ta askar joylashadi. Zirh, shuningdek old va yon zirhlangan oynalari kalibri 7,62 zirh teshuvchi-yonuvchi o‘qdan himoya qila oladi.

Dingo zirhli mashinasi Germaniyada ishlab chiqilgan. 2003 yilda bundesver tomonidan qurollanishga qabul qilingan. Mashinani korpusi zirh po‘lati va nato standartining 3 toifasiga

mos keluvchi kombinatsiyalgan zirhdan iborat. Zirh kalibri 7,62x51 o‘qlar, artilleriya snaryad parchalari, tankka qarshi minalar, qo‘lbola yasama portlagichlar ta’siridan himoyasi bilan, shuningdek, 8 kilogramgacha trotil ekvivalentiga teng portlashlaga bardosh berish bilan ajralib turadi. Dingoga kalibri 7,62 pulemyot yoki kalibri 40 mm avtomatik granatamyot o‘rnatilgan. mashina 8 tagacha to‘liq ekipirovkalangan askar joylashishi mumkin.

Didgori 3



Dingo



Kraz “SHREK” zirhli transportyorining korpusini tubi V - cimon qilib yasalgan. Avtomobil NATO standarti asosida Ukrainada ishlab chiqilgan.

“SHREK” minaga qarshi ko‘p maqsadli himoya transport vositasi. Avtomobil shaxsiy tarkibni tezkor va xavfsiz bir joydan boshqa joyga olib o‘tish, shuningdek, o‘t ochish bilan madad berish uchun mo‘ljalangan. Mashina g‘ildirak ostida ikkita TM 57 rusumli trotil nominali 14 kg bo‘lgan mina yoki korpusini tubi ostida bitta TM 57 rusumli trotil nominali 7 kg bo‘lgan mina portlashiga bardosh bera oladi.

URAL TAYFUN U zirhli avtomobili Rossiyada ishlab chiqilgan. U ko‘p funksiyali tayfun oilasiga mansub zirhli avtomobil hisoblanadi.

Yuk avtomobil transmissiyasi 6x6. Mashina Ural avtomobil zavodida ishlab chiqiladi. sinovdan o‘tish davomida mashina osti trotil nominali 7 kg bo‘lgan mina portlashiga bardosh bera oldi. Kabina, shuningdek, desant zirh bo‘linmasi 200 metr masofadan otilgan kalibri 14,5 KPV pulemyot o‘qiga bardosh bera olib, NATO klassifikatsiyasing 4- himoya darajasiga

to‘g‘ri keladi.

“SHREK”



URAL TAYFUN



Nexter Titus zirxli avtomobil fransiyada ishlab chiqilib, g‘ildirak formulasi 6x6. Avtomobil katta klirensga va korpusi V– simon tubiga egaligi uchun minaga qarshi yuqori himoyaga ega. Mashina NATO klassifikatsiyasi bo‘yicha 4-toifa himoya darajasiga to‘g‘ri keladi. Yani Titus g‘ildirak ostida 10 kilogrammgacha trotil portlash zaryadidan ekipaj va va desantni himoya qila oladi. Korpus zirhi NATO standarti klassifikatsiyasining 2-toifa himoya darajasiga to‘g‘ri kelib, umumiy soni 14 tagacha bo‘lgan ekipaj va jangchilarni kalibri 7,62x39 zirh teshib o‘tish xusuyatiga ega bo‘lgan o‘qlardan asraydi. Mashinaga qo‘shimcha himoya modul o‘rnatilgan bo‘lib kalibri 14,5 o‘qlar tegishidan ham himoya qiladi.

Matador zirhli transporti janubiy afrikani Raramount kompaniyalar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. Iordaniya va Azarbayjon tomonidan seriyali ishlab chiqariladigan mashinalarda kuchaytirilgan minaga qarshi himoya mavjud. Matadorga kalibri 14,5 va 12,7 pulemyotlar o‘rnatilgan. Zirhlangan avtomobil 21 kilogramgacha trotil portlashini yoki g‘ildiraklar ostida uchta tankka qarshi minalardan portlashiga bardosh beradi. NATO klassifikatsiyasi bo‘yicha 4- toifa himoya darajasiga to‘g‘ri keladi. Ikkita ekipaj a’zosidan tashqari, 12 ta jangchi joylashishi mumkin.

Nexter Titus **Matador**





Xulosa. Zirhli avtomobillarning qiyofasi o‘zgarishi mumkin, lekin himoyalangan avtomobillar bugungi kunda o‘zining dolzarbligini ko‘rsatdi va isbotladi. Shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham shunday ishlar davom etmoqda va buning ortida albatta katta mehnat turibti. Hayot davom etmoqda, kelajakda bundanda bardoshli, kompyuterlashgan, zamonaviy zirhli texnikalarni ko‘ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2020. – 23 b.

2. Алпатов В. М., Борисова Ye. Г., Валуйцева И. И. Социолингвистика: учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Лань, 2024. – 260 с.

3. G‘afforov J. Shahar va qishloq maktablarida adabiy til me’yorlarini o‘qitish va dialektal tafovutlar // Pedagogik mahorat. – B., 2023. – №4. – B. 19–25.

4. Баранова В. В. Языковые особенности русских регионов: между диалектом и регионолектом // Вопросы языкознания.– М, 2021. –№ 4. – С. 45–59.

5. Bekchanov R. Xorazm va Farg‘ona lahjalari o‘rtasidagi morfologik farqlarning adabiy muloqotga ta’siri // Ma’mun Akademiyasi ilmiy jurnali. – 2026. – №4. – B. 180–187.